

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 2-son)



FILOLOGIYA
PHILOLOGY

PIRIMQUL QODIROVNING “YULDUZLI TUNLAR” ROMANIDA FOLKLORIZM

Tosheva Nilufar Shirinboyevna
Navoiy davlat universiteti doktoranti(DSc)

Annotatsiya. Ushbu maqolada Primkul Qodirovning “Yulduzli tunlar” tarixiy romanidagi folklori unsurlarining asar badiiyatidagi poetik vazifalari ochib berilgan. Undan tashqari xalqimizning uzoq o‘tmishga ega og‘zaki ijodga tegishli ma’naviy merosi tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar. Xalq urf-odatları, folklorizm, an’ana, tasvir, xarakter, obraz, milliy meros, milliy ma’naviyat

ФОЛЬКЛОРИЗМ В РОМАНЕ ПРИМКУЛА КАДЫРОВА «ЗВЕЗДНЫЕ НОЧИ»

Аннотация. В этой статье «Звездные ночи» Примкула Кадырова раскрываются поэтические функции фольклорных элементов в историческом романе в художественном произведении. Кроме того исследовалось духовное наследие нашего народа связанное с устным творчеством с давним прошлым.

Ключевые слова. Народные обычаи, фольклоризм, традиция, образ, характер национальное наследие, национальная духовность.

FOLKLORISM IN PIRIMKUL KADYROV’S NOVEL “STARRY NIGHTS”

Abstract. In this article, the poetic functions of the elements of folklore in the historical novel “Starry Nights” by Pirimkul Kadryrov in the art of the work are revealed. In addition, the spiritual heritage of our people, related to oral creativity with a long past, was researched.

Keywords. Folk traditions, folklorism, tradition, image, character, national heritage, national spirituality

Kirish. Mustaqilligimizdan so‘ng milliy g‘urur hamda milliy ong tushunchalari ma’naviyatimizning asosiy mezoniga aylandi. Bunday mezonning tamal toshini bobolarimiz: Shiroq, Amir Temur, Bobur, Navoiy, Ulug‘bek kabi sharq yo‘lchi yulduzlari barpo etgan edi. Ajdodlarimiz qoldirgan milliy ma’naviyatimizni asrab-avaylash, ularni saqlab qolish har bir kishining burchi hisoblanadi. Folklorizmlar orqali ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan ma’naviyatimiz saqlab qolinadi. Ijodkor asarida xalqimiz tomonidan yaratilgan qadriyatlardan

tortib, u yaratgan ijodgacha asarining badiiyatini boyitish maqsadida foydalanadi. Adib tarafidan ularga ma’lum ma’noda ishlov beriladi. Ijodkor shaxsiy ijod laboratoriyasida qayta ishlangan folklor unsurlari-yu, motivlari yaratilgan ijod namunasining bir bo‘lagiga aylanadi. Xalq og‘zaki ijodidagi unsurlarning yozma adabiyotda ishtoroki folklorizmni yuzaga chiqaradi. Yozuvchi Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” romanida ham ba’zi folklorizmlarning namunalarini tahlilga oldik. Bizga ma’lumki, bugungi kunda ijodkorlar tomonidan romanning tarixiy turi ko‘p qalamga olinadi. “O‘tgan yili bosilgan romanlarda bir qanchasi millat tarixining turli davrlarini aks ettirishga bag‘ishlangan. Shunisi diqqatga loyiqki, tarixni tasvirlashga tutingan hozirgi yozuvchilar o‘tmishdagi voqealarga bog‘lanib, ularning qanday kechganini ko‘rsatishdan ko‘ra tarixni yaratgan odam va uning ko‘nglidan kechgan ruhiy tug‘yonlarini aks ettirishga ko‘proq e’tibor qaratadilar. Endilikda, yozuvchilar tarixiy hodisa va tarixiy shaxs tasviriga bir qadar erkin yondoshib, tarixning yuzaga kelishi va taraqqiyotida konkret inson tutgan o‘rinni ko‘rsatishga e’tibor berayotirlar!”[1]

Pirimqul Qodirov ham ushbu asarida Bobur shaxsiyatiga to‘xtalar ekan, ham tarixiy voqealarga urg‘u qaratadi, ham qahramon ruhiy holatiga urg‘u berib o‘tadi. Ushbu tarixiy roman adabiy tazyiqqa uchragan asardir, chunki bu asar yaratilganda milliy-diniy qadriyatlarni nafaqat ulug‘lash, balki o‘rganish ham man qilingan edi. Roman yozib bo‘lingandan so‘ng olti yilcha qora kuchlar qarshiligi sababli bosilmay yotadi. Ushbu romanda Bobur va uning avlodlari hayot yo‘lini kuzatish orqali Boburiylar saltanatining vujudga kelishi va ravnaq topishini yorqin tasvirlashga erishgan. Ushbu tarixiy romanda folklorizmlarning oddiy turi bilan birga murakkab turi ham uchraganini guvohi bo‘lamiz.

“Suzishni biladiganlari esa otlarning bo‘yniga yopishib qamishzor qirg‘og‘iga chiqay deganda balchiqqa botdi. Sassiqlik botqoqlik ajdohoga aylanib odamni ham, otni ham oyog‘idan pastga tortar edi. Otlar jon achchig‘idan siltanib kishnar, odamlar qamishlardan qo‘llari tilinib dod solar, ammo ular talvasa qilganlari sari balchiqqa chuqurroq botib, yuz azob, bilan jon berishar edi”[2]. Ushbu parchada qo‘llangan “ajdaho” mifalogik obraz hisoblanadi. Ajdarho ertaklarda juda ko‘p uchraydigan timsol bo‘lib, u har doim odamxo‘r hayvon sifatida tasvirlanadi. Ushbu mifologik obraz dostonlarda ham uchraydi. Doston yoki ertak qahramonlarining qo‘rqamasligini, dovyurakligini ochib berishda ajdarho xayoliy timsolidan foydalanishgan.

“Rustamxon” dostonida Bujul mamlakatini ajdarho egallab oladi va har bir uyga bir qiz soliq soladi. Rustamxon bu ajdarhoni yengadi va Oftoboyni qutqaradi. Bizga ma’lumki, miflar qadimgi insoniyat madaniyatining, ma’naviyatining bosh o‘zagi hisoblanadi. Shuning uchun ham har qanday mifning, mifalogik obrazning kashfiyotchisi xalq hisoblanadi. Ajdarho obrazi ham qadimgi insonlarning tasavvuri mahsulidir. Bu mavjudot yo‘q bo‘lsa-da, ular bor deb tasavvur qilgan. “Ajdarho – 1. Afsonaviy katta ilon. 2. Ko‘chma ma’noda insonlarga nisbatan qo‘llanadi”[4]. Ajdarho yer ostida yashaydigan katta ilon sifatida ibtidoiy insonlar ongida shakllangan. Romanning yuqorida keltirilgan parchasida otlar va insonlarning botqoqqa botish tasvirini ijodkor shu mifalogik obrazga bog‘lab tasvirlagan. Insonlar tasavvurlariga ko‘ra

qadimdan botqoqliklarda botqoq devlari yashaydi, ular odamxo‘r bo‘lishadi, shuning uchun uning komiga kim tushishidan qat’iy nazar uni bir zumda yutib yuboradigan dev bo‘lgan. Ajdarho mifologik obrazining keltirilishidan yozuvchining maqsadi nima bo‘lgan? Voqelikni ijodkor kitobxonga jonli qilib tasvirlamoqchi bo‘ladi, tasvirdagi badiiylikni kuchaytirib ko‘rsatish asosiy funksiyasi bo‘lgan.

“Yulduzli tunlar” romanida xalq og‘zaki ijodi durdonalarida juda ko‘p o‘rinda keladigan “taxt talashish voqeasi”ni uchratishimiz mumkin. Bunday tushunchalar odamzot yaratilibdiki, yer yuzida mavjud tushunchalardir. Xalqimiz tarafidan yaratilgan juda ko‘p ertaklarimizda, rivoyatlarimizda, dostonlarimizda bunday hodisalarni uchratamiz. Ertaklarni o‘qir ekanmiz podshoh yonida ikki xil toifa odamlari yig‘iladi. Biri – yaxshi qatlam, biri – yomon qatlam. Podshoh oldidagi yaxshi qatlam podsholarning barcha aytganlariga so‘zsiz quloq osadi va bajaradi. Yomon odamlar esa o‘z tarafdorini podshoh qilib ko‘rsatish payida bo‘ladi. Ayniqsa, bu holat ota va o‘g‘il orasida ko‘proq uchraydi. Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostoni ham xalq og‘zaki ijodi ta’siri bilan yaratilgan. Unda ham Xusrav va o‘g‘li orasida toj-u taxt bo‘yicha janjal bo‘ladi. Yoki “Uch og‘a-ini botirlar” ertagida ham podshoh oldida g‘alamis vazir bo‘lib, ular podshohning taxtiga ko‘z olaytirar edi. Shuning uchun ham kenja botir va podshoh orasiga sovuqchilik solishadi. Romanda ham toj-u taxt talashish motivi mavjud bo‘lib, Bobur va Jahongir Mirzo orasida kechadi. Xalq og‘zaki ijodidagi voqealar va real hayotdagi voqealar ikkisining omuxtalashuvidan sintezlashgan folklorizmlar vujudga kelgan. Yozma adabiyot va xalq og‘zaki ijodi ikkisining ham o‘rganadigan obyekti insondir, shuning uchun ham bu ikki ijod namunasi doimo hamqadamdir. Yozma adabiyot doim xalq og‘zaki ijodi bilan oziqlangan va boyigan. Yozma ijod folklordan voqea, syujet, motiv, nafaqat, bu shakllarni, balki janrlarni ham olgandir. Toj-u taxt uchun mojarolar yuqorida ta’kidlaganimizdek, real hayotda ham yuz berib kelgan. Podshohlar bu yo‘lda bir-birini ayashmagan. Ota o‘z bolasini, bolasi esa otasini. Bobur Mirzo va Jahongir Mirzolar bir avloddan bo‘la turib bir-biriga mehr-shafqat qilmagan. Oilaviy nizolar hech qachon insoniyatga tinchlik, barqarorlik olib kelmagan. Bu voqeaning yomon holatga kelishi va insonlarning o‘zlari uchun zarar ekanligi xalq tajribasidan o‘tsa-da, odamzot baribir bu xususiyatini qayta-qayta takrorlagisi keladi. “Ulug‘bek xazinasini” romanida Abdulatif va Ulug‘bek orasidagi munosabatlarda ham shu holatni kuzatish mumkin.

Romanda Xo‘ja Abdulla obrazi keltiriladi. Ushbu obraz adolat ramzi hisoblanadi. Asarda Xo‘ja Abdulla Bobur Mirzoning piri, ustodi bo‘lgan. U kishi ilmli inson bo‘lgani uchun butun xalq, saroy ahli orasida obro‘-e’tibori baland edi. Mavlono Fazliddinni qutqargani uchun Ahmad Tanbal tomonidan o‘ldiriladi. U o‘limdan qo‘rqmasdan haqiqat uchun kurashadi. Unda vatanparvarlik ruhiyati kuchli edi. Shuning uchun ham uni saroyda hamma hurmat qilardi. Ertaklarda, dostonlarda, afsonalarda va miflarda mana shunday adolat kurashchilari haqida so‘zlanadi. Haqiqat motivi o‘lmas motiv sifatida yozma asarlarning deyarli ko‘pchiligining asosiy mavzusiga aylanmoqda.

“– Musulmon! – kuyunib takrorladi Xo‘ja Abdulla. – Men adolat yo‘lida jon berishdan qo‘rqmayman! Adolat kim tomanda? – Shuni bir o‘ylab ko‘ringlar. Inini og‘aga dushman

qilganlar kimlar? Yaxshilarga baxilligi kelib, poyiga bolta urayotganlar kimlar? Bu qora kunlarni boshimizga solganlar kimlar?!

– Sen o‘zing! – deb qichqirdi Ahmad Tanbal.

– Men Bobur Mirzoga kichikligidan ilm o‘rgatdim, lison o‘rgatdim, men uni odil podshoh bo‘lishga undadim. Movarounnahr yana birlashsin-u yurt ichki urushlardan qutulsin, dedim. Bobur mirzo mardona ishlar qilib, Samarqand bilan Andijonni birlashtirganda men ezgu orzularimga yetganday suyungan edim. Hayot, mamlakat yana parchalandi. Yurt vayron bo‘ldi! Xaloyiq, agar meni o‘ldirish bilan mushkulingiz oson bo‘lsa, mayli, o‘ldiring!

– Toshbo‘ron qiling! – buyurdi Ahmad Tanbal xaloyiqqa. Odamlar to‘pining orqarog‘idan tovush eshitildi:

– Shayxulislom fatvo bermaguncha toshbo‘ron qilishga haqqimiz yo‘q! Keksa bir kishi:

– Pir qarg‘ishidan qo‘rqamiz! – dedi[2].

Adolatdan insoniyat ko‘z yumishi mumkin, ammo voz kecha olmaydi. Xo‘ja Abdulla ham umri davomida adolatni tiklash uchun kurashdi, ammo uni hokimiyat sig‘dirmadi. Insoniyat haqiqatni tan oldi, tan olgani uchun ham Xo‘ja Abdullaga tosh otmadi. Unga qarshi bormadi. Adolat uchun kurashish motivi xalq og‘zaki ijodining ko‘p janrlarida uchraydi. Ertaklarda adolatli shahzoda, dostonlarda adolatli shoh va boshqa.

So‘z qudratli kuchga ega. So‘z qudrati xalq og‘zaki ijodida ham yozma adabiyotda ham ijodkorlar tarafidan, xalq tarafidan ajoyib shaklda ochib berilgan. Yuqorida keltirilgan parchada “pir qarg‘ishi” birikmasi keltirilgan. Xo‘ja Abdulla nochor ahvolda, Ahmad Tanbal unga qarata tosh oting deganda odamlar uning qarg‘ishidan qo‘rqadi.

“Qur‘oni Karim oldida so‘z berurmen, umrbod sodiq qulingiz bo‘lurmen, amirzodam! Faqat meni inoyatingizdan mahrum qilmasangiz, bas!”[2]. Qur‘oni Karimni oraga qo‘yib qasamni ichish syujeti dostonlarda ham mavjud. Bu esa xalqning e‘tiqodi bilan bog‘liqdir. “Kuntug‘mish” dostonida Azbarxo‘ja Kuntug‘mish bilan Qur‘oni Karimni o‘rtaga qo‘yib do‘st tutinadi. Ushbu voqelikdan ko‘rinadiki, xalq og‘zaki ijodi voqeligi yozma asarlar syujetiga ko‘chgan. Rivoyat va afsonalarda ota-ona, ustoz duolari, qarg‘ishlari haqida fikr yuritiladi. Binobarin, ularda anglashilgan so‘z kuchi, so‘z qudrati butun insoniyatga ma‘lumdek go‘yo. Romanda keltirilgan bunday folklor unsurlari murakkab folklorizmning analitik turiga kiradi. Analitik folklorizmning boshqa murakkab folklorizmlardan farqi shundaki, ular roman g‘oyasi bilan birikib ketaolmaydi. Agar bir folklor unsurini olib tashalasak ham asar syujetida, uning kompozitsiyasida hech qanday o‘zgarish kuzatilmaydi. Yozuvchi folklorizmning bunday turidan foydalanishiga sabab asar voqeasiga emotsionallik beradi, syujetga falsafiy-didaktik kayfiyat bag‘ishlaydi.

“Analitik folklorizmlar asarning g‘oyaviy-tematik diapozonini kengaytirishga ko‘mak beradi, ular badiiy asarning g‘oyaviy yo‘nalishi, tematik asoslari bilan uyg‘unlikda badiiy to‘qimaga kiritilsalar ham, biroq bu bog‘liqlik organik aloqadorlik darajasiga ko‘tarila olmaydi”[3].

“Yulduzli tunlar” romanida qo‘llangan analitik folklorizmlar ham ko‘rinishidan asar voqeasiga bog‘liqdek turibdi, ammo bu folklorizmlar olib tashlanganda ularning ko‘pi asar uchun, uning syujeti uchun ahamiyatsizdek ko‘rinadi. Romanda O‘g‘uzxon nomi keltiriladi. O‘g‘uzxon turkiy xalqlarning afsonaviy qahramoni. Tarixchilarning ma‘lumotiga ko‘ra u tarixiy shaxs bo‘lgan degan ma‘lumot ham mavjud. O‘g‘uzxon haqidagi ma‘lumotlar XV asrda uyg‘ur tilida yozilgan “O‘g‘uznoma” qo‘lyozma asari orqali yetib kelgan. Ushbu qo‘lyozmadagi afsonaga ko‘ra, O‘g‘uzxonning onasi ilohiy nurdan homilador bo‘lgan va O‘g‘uzxonni tug‘gan. O‘g‘uzxonning oyoqlari ho‘kizning oyoqlariga, beli bo‘rining beliga, yelkasi kabutar yelkasiga, ko‘kragi esa ayiqning ko‘kragiga o‘xshash bo‘lgan. O‘g‘uzxon tug‘ma qahramon bo‘lgan, tug‘ilgan zahoti afsonaviy hayvon – yakkashoxni o‘ldirdi. O‘g‘uzxonning samoviy xotinidan uch o‘g‘il: Kunxon, Oyxon, Yulduzxon; zaminliy xotinidan ham uch o‘g‘il: Ko‘kxon, Tog‘xon, Dengizxon tug‘ilgan. O‘g‘uzxon o‘zini xoqon deb e‘lon qilib, qo‘shni mamlakatlarga yurish qilgan. Unga ko‘k rangli bo‘ri yordam bergan shuning uchun ham turkiy xalqlarning totemi bo‘ri bo‘lgan. O‘g‘uzxon haqida ushbu afsona roman to‘qimasiga singishib ketmagan. O‘quvchiga O‘g‘uzxon haqidagi afsonaning keltirilishi bilan Eson Davlatbeganning qanday avlodidan ekanligini tanishtiradi. Romanda axloqiy qonun-qoidalar haqida ham fikr-mulohaza boradi. Bu milliy tarbiyamiz bilan bog‘liqdir. Asarda Xo‘ja Yahyo haqida ma‘lumot keltirilib o‘tiladi. Xo‘ja Yahyo Xo‘ja Ahrorning o‘g‘li bo‘lgan O‘rta Osiyolik mutafakkir, naqshbandiy tariqati rahnomasi bo‘lgan. Ushbu din peshvosi shahzodalarni tarbiyalagan. Ularning tarbiyasi uchun javobgar bo‘lgan. Shayboniyxon Xo‘ja Yahyoga qarab shunday fikrlarni beradi: “–Bu mirzolarning Piri – sizning otangiz Xo‘ja Ahror edi. “Men valiyman” deb, podshohlarga hukmini o‘tkazib, juda katta boylik orttirgan edi. Bizning xabarimiz bor otangizdan sizga juda ko‘p oltin qolgan. Otangiz o‘lgandan keyin, mana, o‘n bir yildan beri siz Samarqandda ruhoniylar ota bo‘lib yuribsiz. Siz ham nafsga berilib, juda ko‘p siym-u zar to‘plagansiz. Baliq boshidan buziladi”[2].

Asarda ijodkor tomonidan xalq maqollari, xalq iboralari qo‘llangan bo‘lib, ular ham bu asar syujeti uchun ma‘lum funksiyani bajargan. Asarlarda ijodkor tarafidan maqol va iboralarning qo‘llanishi folklorizmning oddiy turiga kiradi. Yozuvchi oddiy folklorizmdan foydalansa-da, roman mazmun-mohiyatiga hech qanday ta‘siri yo‘q. Maqollarni inson nutqida nima maqsadda qo‘llashi kerak? Maqollar, asosan, o‘quvchiga Xo‘ja Yahyo shaxsiyati va uning atrofida qilar haqida ma‘lumot beradi, xolos. Romanda bir qancha o‘rinlarda maqollar keltirilgan.

“– Yaxshi bo‘lsa oshini yer, - qo‘shib qo‘ydi Shayboniyxon, – yomon bo‘lsa boshini!”[2]. Ushbu maqolda, agar inson yaxshi ishlar, amallar qilsa, uni el-u yurt hurmat qiladi va bu inson hammaning oldida hurmat-izzatda o‘tiradi. Yomon bo‘lsa, uning jamiyatda ham o‘rni bo‘lmaydi, hech kim hurmat ham qilmaydi. Asarda Shayboniyxon Samarqandni egallash uchun Bobur mirzo bilan qancha kurash olib boradi. Sulton Ali mirzo temuriyzoda Bobur bilan ittifoq tuzib Shayboniyxonga qarshi kurashish o‘rniga shoh oldiga bosh egib bordi. Vataniga, xalqiga xiyonat qildi. Sulton Ali mirzoning onasi Zuhra begim esa Shayboniyxonga xotin bo‘lish uchun

boradi, ammo Shayboniyxon aqlli, tadbirkor podshoh edi. Xiyonatkor Zuhrabegimni Mansur baxshiga berdi. Sulton Alini esa o‘ldirtirib yubordi. Ushbu maqol shu ikki qahramonga nisbatan aytilgandi. Maqollar xalqimiz tajribasidan kelib chiqib yaratilgan. Ota-bobolarimiz aytgan har bir maqol ularning bir hayotiy tajribasi, hayotiy sinovlar yechimidir. Xalqimizda: “Ustoz – otangday ulug’” – degan maqol mavjud. Ustoz, ustod, pir – bu so‘zlarning bari bir ma’no, vazifaga ega. Bobur ijodni yaxshi tushunadigan shoir-qalb inson edi. U Alisher Navoiyni yaqindan bilmasa-da, uning ijodidan har doim bahramand edi. Bizga ma’lumki, Husayn Boyqaro Alisher Navoiyning shohi, do’sti bo‘lgan. Ammo Husayn Boyqaro hazrat Alisher Navoiyga har doim katta ehtirom bilan qarar, uning ijodini qadrlagan. Bobur mirzo Alisher Navoiy ijodiga qiziqqani uchun uning har bir jabhasidan xabardor bo‘lardi. Asarda keltirilishicha, Bobur oldiga Xondamir kelgan vaqtda. Unga “Xamsa” dostonini tugatib, Husayn Boyqoroga tortiq qilgani Husayn Boyqoro eng yaxshi ko‘rgan oq otini keltirilishini buyuradi, Alisher Navoiy menga oq otini sovg’a qiladi deb o‘ylaydi, ammo Husayn Boyqoro Alisher Navoiyni hammaning oldida shu oq otiga mindirib jilovdorlik qilibdi. Alisher Navoiy hazratlari bu holdan juda hijolat bo‘lganlaridan Husayn Boyqoro Alisher Navoiyga: “Turkiy tilda birinchi bo‘lib yozgan ulug’ “Xamsa”ngiz uchun mendek Sulton Sohibqiron Sizga jilovdor murid bo‘lsa arzir!”[2] debdi. Ustozni qadrlash, uni hurmat qilish an’anasi qadimdan an’ana tusiga kirib qolgandir.

Romanda xalq og‘zaki ijodida mavjud bo‘lgan ba’zi motivlar yozuvchi tomonidan asar syujetiga ma’lum maqsadlarga singdirib yuborilgan. Dostonlarimizning, xalqimiz tarafidan yaratilgan qo‘shiqlarimizdagi, allalarimizdagi, afsona, rivoyatlarimizdagi sevgi, vafo, mehr-muhabbat va ularning qarama-qarshisi o‘laroq nafrat, jafo, qahr-qazab tushunchalari ham ma’lum bir qahramonni kitobxonga yaxshiroq va real tanishtirishda yordam bergan. Boburning oldida doimo birga yurgan unga har doim sodiq qolgan Qosim obrazi. “Alpomish” dostonida Alpomish va Qorajon munosabatlarini esga soladi. Boburdan toj-u taxt ketgan vaqtda, uning xotini Oyshabegim Bobur bilan birga yashamay, unga sodiq qolmay uni tark etadi natijada boshqa bir xonga turmushga chiqadi. Oyshabegim orqali folklordagi vafosizlik ochib ko‘rsatilgan. Ertaklarimiz va rivoyatlarimizda hamda dostonlarimizda asosiy mavzu bo‘lib keladigan xun olish motivi, asarda, ayniqsa, Sulton obrazi orqali yoqqol ochib ko‘rsatiladi. Bobur Hindikush tog‘idan o‘tishda Sulton degan odam ularga yo‘l ko‘rsatuvchi bo‘ladi. Sultonning ota-bobolari Shoxrux mirzo bilan yaxshi hamkorlik qilgan badavlat odamlar bo‘lgan. Shoxruxning o‘limidan keyin Turondan Abusaid mirzo o‘g‘li Mahmud mirzo bilan Xurosonga bostirib keldilar. Abusaid mirzo Sultonning otasi va akasini ham shohruhiylar tomonda turgani uchun boshlarini kesdirdi. Hovlilaridagi bor mol-holini, onasining bo‘g‘chalaridagi narsalarigacha talab ketdilar. Sultonni o‘n besh yoshlik chiroyli opasini asira qilib olib ketadilar. Sulton Boburning Abusaid avlodidan ekanini bilib, ataylab uni qo‘shini bilan o‘ldirib yubormoqchi bo‘ladi. O‘zining hayotini xavf ostiga qo‘yib bo‘lsa-da oilasining xunini olmoqchi bo‘ladi. Ammo Bobur mirzodagi ma’naviy bag‘rikenglikni ko‘rib, uning aqlli, yaxshi inson ekanligiga tan berib xun olish fikridan qaytadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, “Yulduzli tunlar” romanida ijodkor tarafidan qo‘llangan har bir folklorizm u qaysi turga mansub bo‘lishidan qati’y nazar asar syujetida va uning kompozitsiyasida ma’lum bir funksiyalarni bajaradi. Zero, xalqimizning ma’naviy merosini avaylab-asrash, uni rivojlantirish, ularni keyingi avlodlarga kam-u kustsiz yetkazish ijodkor xalqining vazifalaridan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Qozoqboy Yo‘ldoshev. Roman va bugungi o‘zbek romanchiligi (2010-yil romanlari misolida) Sharq yulduzi. 20 №4. 134-bet.
2. Pirimqul Qodirov. Yulduzli tunlar. – Toshkent : Navro‘z, 2019. 78-bet.
3. Sarimsoqov Bahodir. Folklorizmlar tipologiyasi masalasiga doir.//O‘zbek tili va adabiyoti. –Toshkent, 1982. №2. B.44
4. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Birinchi jild. G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent. 2022. 64-bet.